



ISSN 2091-5187

СЕРВИС

ИЛМИЙ-АМАЛИЙ
ЖУРНАЛ

№4/1
2024



СЕРВИС

ИЛМИЙ-АМАЛИЙ ЖУРНАЛ 2024 йил, 4/1-сони

Муассис: Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институти

Ўзбекистон Матбуот ва ахборот агентлиги томонидан 2008 йил 31 декабрда
0561-рақам билан рўйхатга олинган.

ЎзР ОАК Риёсатининг 19.03.2017 й., 239/5-сонли қарори билан эътироф этилган

**Таҳририят ижодий
жамоаси:**

Бош муҳаррир:
и.ф.д., проф. М.Э.Пўлатов

**Бош муҳаррир
ўринбосари:**
и.ф.н., проф. Д.Х.Асланова

Масъул котиб:
и.ф.д., проф. М.Қ.Пардаев

Муҳаррирлар:
и.ф.д., доцент Ф.А.Сафаров
PhD, доцент И.М.Пардаева
А.Х.Мингбоев

Техник муҳаррир:
и.ф.н., проф. А.Н.Холикулов

Корректор:
PhD, доц. С.А.Бабаназарова

Саҳифаловчи:
PhD Х.Н.Очилова

1 йилда 4 маротаба
чоп этилади.

**Ўзбекистон ҳудудида
тарқатилади.**

Таҳририят манзили:
140100, Самарқанд шаҳар,
Амир Темур кўчаси, 9-уй,

тел.: +998(66)233-28-38,
+998(97)913-74-40

факс: +998(366)231-12-53
эл.почта:

samisiservis@mail.ru

Таҳририят кенгаши раиси:

М.Э.Пўлатов – Самарқанд иқтисодиёт ва сервис
институти ректори, и.ф.д., профессор

Таҳририят кенгаши раиси ўринбосари:

Д.Х.Асланова – СамИСИ илмий ишлар ва
инновациялар бўйича проректори, и.ф.н., профессор

Таҳрир кенгаши аъзолари:

Б.А.Бегалов – Ўзбекистон Республикаси Президенти
хузуридаги Статистика агентлиги директори, и.ф.д.,
профессор

М.Қ.Пардаев – СамИСИ профессори, и.ф.д.

Б.К.Ғоибназаров – и.ф.д., профессор.

М.М.Мухаммедов – СамИСИ профессори, и.ф.д.

Д.Р.Зайналов – СамИСИ профессори, и.ф.д.

О.М.Муртазаев – ТДИУ СФ директори, и.ф.д., проф.

М.Р.Болтабаев – ТДИУ профессори, и.ф.д.

Р.Х.Эргашев – ҚарМIIИ профессори, и.ф.д.

И.С.Тўхлиев – СамИСИ профессори, и.ф.д.

К.Б.Уразов – СамИСИ профессори, и.ф.д.

Қ.Ж.Мирзаев – СамИСИ профессори, и.ф.д.

Б.И.Исроилов – ТДИУ профессори, и.ф.д.

Г.М.Шодиева – СамИСИ профессори, и.ф.д.

Б.Абдукаримов – СамИСИ профессори, и.ф.н.

Р.Қобилов – Самарқанд вилояти ҳокими ўринбосари

С.Н.Тошназаров – СамИСИ профессори, и.ф.д.

Р.Н.Нормахматов – СамИСИ профессори, т.ф.д.

А.Бектемиров – СамИСИ профессори, и.ф.д.

О.М.Пардаев – СамИСИ профессори, и.ф.д.

М.Т.Алимова – СамИСИ профессори, и.ф.д.

З.Дж. Адилова – ТДИУ профессори, и.ф.д.

Ш.О.Қувондиқов – СамИСИ профессори в.б., иқтисод
фанлари доктори

Л.Н.Халикова – СамИСИ профессори, DSc

Ф.А.Сафаров – СамИСИ доценти, DSc

А.М.Каримова – СамИСИ профессори в.б., DSc

Zubayda Ubaydullayevna Shodmanova Xizmat ko'rsatish sohasidagi korxonalarining iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash choralarini o'rganish va takomillashtirish	73
Дурбек Мирзаахмадов Хизмат кўрсатиш корхоналари рақобат устунлигини таъминлаш механизмлари	77
Bobir Xo'jaqul o'g'li Qilichov Xizmat ko'rsatish sohasi bo'lgan sug'urta va turizm korxonalari samaradorligining qiyosiy tahlili	82
ТУРИЗМ ВА МЕҲМОНХОНА ХЎЖАЛИГИ	
Нигина Тажиевна Юсупова, Дилбар Хасановна Асланова Оценка перспектив создания кластера в туристском секторе экономики Республики Узбекистан	87
Райхона Садриддиновна Амриддинова, Сардор Олимович Рахимов Сотрудничество между туроператорами и гостиницами как залог успешной продажи гостиничных номеров в Узбекистане	94
Farrux Oltinboyevich Husanov Turistik oqimlar va transport masalalarini modellashtirish	98
Suxrob Ramazonovich Bobokalonov Buxoro viloyatida joylashgan Afshona qishlog'ida turizm shaharchasini tashkil etish loyihasini amalga oshirish istiqbollari	102
G'ayrat Soyibovich Raupov Turizm xizmatlarini diversifikatsiyalash jarayonining konseptual modeli va diversifikatsiya matritsasi	110
Shohista Bobobekovna Toyirova O'zbekistonda ekologik turizmning yangi turizm yo'nalishi sifatida rivojlanish tendensiyasi	115
Камилла Бахромовна Суюнова Худудий брендни шакллантириш мақсадида давлат-хусусий шериклик алоқаларини ривожлантириш истиқболлари	119
Latofat Tolibovna Yo'ldosheva Samarqand viloyati turizm sohasining rivojlanish holati va tendensiyalari	123
Матлюба Абдуманнабовна Куймуратова Жаҳонда туризмнинг ҳолати ва ривожланиш истиқболлари	127
Kamol Sharifovich Yuldashev Xalqaro tajriba asosida O'zbekistonga mustaqil turistlarni jalb qilishda viza siyosatining ta'siri	132
Азиза Пирмаматовна Махмудова Туризм соҳасини инновацион ривожлантириш йўллари	137
Marjon Komilovna Sharifova Ziyorat turizmini strategik rivojlantirish va tahlil qilish yo'llari	140
КИЧИК БИЗНЕС ВА ОИЛАВИЙ ТАДБИРКОРЛИК	
Умар Худайбердиев Оила муносабатларидаги муаммолар ва уларнинг ечимлари	145
Акрам Одилович Очилов, Жаббор Махмудович Суюнов Критерии оценки деятельности субъектов предпринимательства в регионах	147
Шавкат Собирович Олтаев Кичик бизнес ва хусусий тадбиркорлик субъектларининг экспорт салоҳиятини ошириш йўллари	152

ризмлари) ривожлантиришни такомиллаштиришнинг кучайиши мамлакатимизда халқаро туризмни ривожлантириш марказларининг яратилишига эҳтиёжнинг кучайишига олиб келади.

2. Ўзбекистонга хорижий туристлар оқимининг кўпайиши туризмнинг соҳалари ва турлари бўйича халқаро талаб даражасида хизмат кўрсатадиган туроператорларни тайёрлаш, қайта тайёрлаш, малакасини ошириш ва кўникмаларни шакллантириш эҳтиёжларини кучайтиради.

Хулоса қилиб айтганда ушбу масалалар амалга ошадиган бўлса, мамлакатимизда ҳам туризм соҳаси иқтисодийнинг драйверига айланиш имкониятига эга бўлади.

М.Куймуратова Состояние туризма в мире и перспективы его развития	М.Kuimuratova The state of tourism in the world and its development prospects
Аннотация: в статье рассмотрено состояние туризма в мире и перспективы его развития, изучен уровень развития международного туризма в туристических регионах мира на 2000-2020 годы и разработаны прогнозы до 2030 года. Проанализированы тенденции международного туристического рынка по регионам за тот же период. Ключевые слова: туризм, международный туризм, мировой туризм, туристский потенциал, туриндустрия, развитие туризма, туристический рынок, услуги, экспорт услуг.	Abstract: The article examines the state of tourism in the world and prospects for its development, studies the level of development of international tourism in tourist regions of the world for 2000-2020 and develops forecasts until 2030. Trends in the international tourism market by region for the same period are analyzed. Keywords: tourism, international tourism, world tourism, tourism potential, tourism industry, tourism development, tourism market, services, export of services.

Kamol Sharifovich Yuldashev — Ipak yo‘li xalqaro turizm va madaniy meros universiteti tayanch doktranti, Buxoro davlat universiteti o‘qituvchisi

XALQARO TAJRIBA ASOSIDA O‘ZBEKISTONGA MUSTAQIL TURISTLARNI JALB QILISHDA VIZA SIYOSATINING TA’SIRI

Annotasiya: mazkur maqolada xalqaro tajriba asosida O‘zbekistonga mustaqil turistlarni jalb qilishda viza siyosatining bevosita ta’siri statistik ma’lumotlar asosida isbotlangan va mamlakatning turistlar nazarida ochiqlik indeksi miqdoriy baholash metodologiyasi orqali aniqlangan.

Kalit so‘zlar: viza, mustaqil turist, vizasiz rejim, global passport indeks, ochiqlik indeksi, moqdoriy baho, viza turlari.

Kirish. So‘nggi yillarda turizm industriyasi jahon miqyosida jadal rivojlanayotgan iqtisodiyot tarmoqlaridan biri bo‘lib hisoblanadi. World Travels & Tourism Council (WTTC) bergan statistik ma’lumotlariga ko‘ra, 2022-yilda sayohat va turizm sektori jahon yalpi ichki mahsulotiga 7,6 % hissa qo‘shdi va u 2021-yilga nisbatan 22 % o‘shishga erishgan bo‘lsa, ammo 2019-yilga nisbatan 23 % past ko‘rsatkichni tashkil etgan. Bundan tashqari, 2022-yilda 22 million yangi ish o‘rni paydo bo‘lib, bu 2021-yilga nisbatan 7,9 % ga o‘shishni va 2019-yilga nisbatan atigi 11,4 % past ko‘rsatkichni tashkil etdi. 2022-yilda mahalliy tashrif buyuruvchilarning xarajatlari 20,4 % ga oshdi, ammo 2019-yilgi ko‘rsatkichdan atigi 14,1 % pastroq bo‘ldi. 2022-yilda xalqaro tashrif buyuruvchilarning xarajatlari 81,9 %ga oshdi, ammo baribir 2019 yilga nisbatan 40,4 % ga ortda qolmoqda [1].

Sayohat qilishni istagan har bir turist destinatsiyani tanlash jarayonidagi eng asosiy omillardan biri bu mamlakatning viza siyosati hisoblanadi. Viza siyosatining soddalashtirilishi mamlakatga xorijiy turistlar oqimini oshirishda, yangi ish o‘rinlarining paydo bo‘lishiga, xalqaro aloqalarining mustahkamlanishiga, sayohat davomiyligining uzaytirilishiga olib keladi. Mamlakatning xalqaro turizmdan olishi mumkin bo‘lgan ijtimoiy-iqtisodiy manfaatidan to‘liq foydalanish uchun jahon miqyosida raqobatbardosh qiladigan shart-sharoitlarni yaratish bilan

birga mamlakat hududiga xorijiy turistlarning to‘siqlar va qiyinchiliklarsiz tashrif buyurishini imkoniyatini ham yaratib berish kabi dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi. Shu sababdan mamlakatga tashrif buyurgan xorijiy sayyohlar oqimini yanada oshirish maqsadida viza siyosati bevosita ta’siri isbotlab berish kabi dolzarb mavzulardan biri hisoblanadi va bu borada turli xil tadqiqotlar asosida ilmiy yondashish zarurligini tasdiqlab beradi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Turizm sohasida va turistlar oqimining oshishiga bevosita ta’sir ko‘rsatishini bir necha xorijlik va mahalliy olimlar o‘z chop etilgan maqolalarida alohida ta’kidlab o‘tishgan. Xususan, ispaniyalik olimlardan Jaime Rossello va Maria Santana-Gallego [2] “The effect of visa types on international tourism”, nomli maqolasida viza siyosati xalqaro turizm oqimiga ta’sir qiluvchi eng muhim ma’muriy rasmiyatchiliklardan biridir degan fikrni ilgari surgan, bundan tashqari, Moufida Nadi [3] “The Impact Of Visa Facilities On Tourism Sector Case Study For Algeria” nomli maqolasida, Luz Anjelika Kantillo Ortiz [4] “Impact of visa restrictions on international tourism arrivals” tezisda, Andrés Artal-Tur, Vicente J. Pallardo-Lopez [5], Francisco Requena-Silvente [6] “Examining the impact of visa restrictions on international tourist flows using panel data”, MDH olimlardan esa, Харевич Мария Михайловна [7], Леонид Гайдукевич, mahalliy olimlardan esa, N.S. Ibragimov [8] “Turistik hudud barqaror raqobatbardoshligiga erishishning ilmiy asoslari” nomli dissertatsiyalarida ushbu yo‘nalish bo‘yicha o‘z tadqiqotlarini olib borishgan. Ammo ushbu olimlar viza siyosatining yumshatilishi aynan mustaqil turistlar kategoriyasi uchun muhimligi haqida o‘rganishmagan va shundan kelib chiqib ushbu mavzuning dolzarbligini va qo‘shimcha tadqiqotlar olib borish zaruratini ko‘rsatib beradi.

Tadqiqot metodologiyasi. O‘zbekistonda yillar davomida viza siyosatining o‘zgarib borishi bilan xorijiy hamda mustaqil turistlar oqimining o‘zgarib borishi haqidagi tahlil jarayonida tahlil va sintez, miqdor va sifat kabi usullardan foydalangan holda miqdoriy baholangan.

Tahlil va natijalar. O‘tgan asrda sayohatni amalga oshirishda vizani rasmiylashtirish tartiblari, chegaradagi bojxona qoidalar, valyuta ayirboshlash cheklovlari kabi omillar katta to‘siq bo‘lgan bo‘lsa, bugungi kunga kelib ko‘pgina mamlakatlarda viza tartibining soddalashtirilishi xalqaro sayohatlarning o‘shishiga olib keldi. Barcha mamlakatlarda viza rejimi turli-xil tartibda belgilangan. Iqtisodiy jihatdan rivojlangan, barqaror va demokratik mamlakatlarning pasportlariga ega bo‘lgan fuqarolar hududlararo harakatlanishi uchun keng imkoniyatlarga ega. Misol uchun ko‘pgina davlatlar Birlashgan Arab Amirliklari, Germaniya va Fransiya pasportiga ega bo‘lgan fuqarolardan viza talab etilmaydi. Aksincha, iqtisodiy kam rivojlangan, barqaror bo‘lmagan va notinj sanalgan mamlakatlar fuqarolarining harakatlanishning past darajasini tashkil etmoqda, shu sababdan ularni kirish jarayonida qattiq tekshiruvdan o‘tkazishadi. Global Passport Indeks tomonidan 2024-yilning yanvar oyiga nisbatan tayyorlagan jahon pasportlari indeksi natijalari 1– jadvalda aks ettirilgan.

1– jadval

2024 yilgi dunyodagi eng kuchli passportlar reytingi [9]

O‘rin	Mamlakat	Vizasiz tashrif buyurishi mumkin bo‘lgan mamlakatlar soni	Mamlakatga yetib kelgach viza olish	Viza talab etiladigan mamlakatlar soni	Umumiy soni
1	B.A.A	134	45	19	179
2	Fransiya,	137	40	21	177
	Germaniya,	136	41	21	177
	Italiya,	136	41	21	177
3	Shvetsiya	135	41	22	176
	Finlandiya	135	41	22	176
67	Gambiya	46	27	125	73
	Uganda	38	35	125	73
	Uzbekistan	30	43	125	73
	Qirg‘iziston	30	43	125	73
	Hindiston	30	43	125	73

Index bo'yicha yuqori ballga ega bo'lgan mamlakatlar (ko'p mamlakatlarga vizasiz kirish imkoniyatiga ega bo'lgan kuchli passport fuqarolari hisoblangan mamlakatlar) yuqori ochiqlik indeksi ko'rsatkichiga ega emas. Sababi, ushbu mamlakatlar immigratsiya uchun qulay hududlar hisoblanganligi sababli, yopiq viza siyosatiga ega. Aksincha, immigratsiya qilish darajasi past bo'lgan mamlakatlar xorijiy turistlarni jalb qilish maqsadida soddalashtirilgan viza siyosatini olib borishmoqda.

Viza siyosati bu – bir mamlakat tomonidan uning fuqaroligi bo'lmagan shaxslarni qisqa muddatli turistlar yoki sayohatchilar, xorijiy talabalar, vaqtinchalik ish faoliyatini olib boradiganlar hamda doimiy migrantlar sifatida qabul qilishni qaror qilish jarayoni hisoblanadi. Bundan tashqari, viza siyosati mamlakatlar o'rtasidagi diplomatik aloqalarni belgilab berishdan tashqari, soddalashtirilgan viza tartibi ikki mamlakatlar o'rtasidagi munosabatlar mustahkamligi, turistlarining bemamlol harakatlanish belgisini ham beradi. Viza olishda insonning ushbu hududda nima maqsadda borishiga qarab belgilanadi. Umuman olganda visaning turli xil turlari mavjud:

1. Turistik viza – dam olish va sayohatni amalga oshirish maqsadida mo'ljallangan. Tutistik visani olishda odatda, konsullikka ariza berish, turar joy yoki mehmonxona bandligini tasdiqlovchi hujjat, qaytib kelish avia chiptasining tasdig'i, iqtisodiy holatini tasdiqlovchi hujjat va ba'zida sug'urta kabi hujjatlar talab etiladi.

2. Ish viza – boshqa mamlakatga ishlash maqsadida taklif etilgan ishchilar guruhi. Odatda, ushbu ko'rinishdagi vizani ish sharoiti va boradigan mamlakatga qarab, ma'lum bir belgilangan muddatgacha beriladi. Ish vizasini olish uchun ish beruvchi tomonidan taklifnoma va boshqa zaruriy hujjatlar, ma'lumoti, malaka va ish tajribasini tasdiqlovchi hujjat, tibbiy ko'rik kabi hujjatlar talab qilinadi.

3. Talaba viza – chet mamlakatlarda o'qishni xohlagan talabalar. Ushbu vizani olish uchun ta'lim muassasiga o'qishga qabul qilganligi haqida, moliyaviy imkoniyatlari hamda talaba maqomiga ega bo'lganligini tasdiqlovchi hujjatlarni taqdim etilishi zarur bo'ladi.

4. Biznes viza – boshqa mamlakatlarga biznes, uchrashuvlar, konferentsiyalar, kelishuvlar va muzokaralarda ishtirok etsih maqsadida tashrif buyurishni rejalashtirgan chet el fuqarolari uchun mo'ljallangan. Ushbu vizani olish uchun taklif etilayotgan korxona, rasmiy muassasa va biznes hamkori tomonidan tasdiqlovchi hujjatlar taqdim etilishi lozim.

5. Immigratsion viza – boshqa mamlakatga qolish va yashash istagida bo'lganlar uchun. Ushbu ko'rinishdagi viza xorijiy fuqaro uchun doimiy rezident sifatida qonuniy yashash va yashash huqqini beradi. Vizani olish uchun fuqaro qochoq maqomiga, mahalliy fuqaro bilan oilaviy yoki ish maqsadidagi aloqalarining mavjudligi yoki mamlakatga iqtisodiy sarmoya kiritishni tasdiqlovchi hujjatlarni talab etadi.

6. Tibbiy davolanish uchun viza – boshqa mamlakatga davolanishga muhtojligi bor bemorlar uchun taqdim etiladi. Vizani olish uchun sayohat maqsadi, kasalligi va davolanish zarurligini tasdiqlovchi hujjat, chet mamlakatdagi tibbiyot muassasidan taklifnomani taqdim etish zarur.

Yuqorida ko'rsatilgan ushbu viza turlar eng ko'p taqdim etiladigan va asosiy ko'rinishlari bo'lib, undandan tashqari insonning maqsadi va sayohat toifalariga qarab boshqa turlari ham mavjud. Har bir mamlakatning o'z siyosati, qoidalari va talablaridan kelib chiqib, vizaga murojaat qilishdan oldin elchixona yoki konsullikning rasmiy veb-saytidagi ma'lumotlarni tekshirish tavsiya etiladi. Qulay hamda oson viza rejimining joriy etilishi, tezlashtirilgan viza tartib qoidalarining mavjudligi, bular: fuqarolarning ayrimlari uchun vizasiz rejim yoki ma'lum bir hududga aeroport va bojxona chegaralariga yetib kelgandan so'ng viza olish tartiblarining joriy etilishi xalqaro tashrif buyuruvchilar oqimini sezilarli darajada oshishiga olib keladi.

Passport indeksi kuchli bo'lgan fuqarolarning dunyo bo'ylab erkin sayohat qilishidan tashqari mamlakat viza ochiqlik darajasining yuqoriligi xorijiy turistlarning ushbu mamlakatga tashrif buyurish sonining oshishiga katta ta'sir ko'rsatadi. Viza olish tartibining qiyinligi mustaqil turistlar uchun katta to'siq bo'lib hisoblanadi. Viza ochiqligining darajasi mamlakat uchun turli xil afzalliklari mavjud, masalan, iqtisodiy manfaat ya'ni, xorijiy turistlar oqimining ko'payishi bilan chet el valyutalarining kirib kelishi, turistik ish o'rinlarining paydo bo'lishi, turizmga yon-

dosh iqtisodiy tarmoqlarning rivojlanishi, infratuzilmalarining takomillashtirilishi, madaniy almashinuv, diplomatik aloqalarining mustahkamlanishi hamda turizmning rivojlanishiga olib keladi.

Tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, mamlakatga kirish uchun viza rejimining soddalashtirilishi asosan rivojlanayotgan mamlakatlarda kuzatilmoqda Viza ochiqlik darajasi oshirilgan sari tashrif buyuruvchilar sonining keskin darajada oshib borganini kuzatish mumkin. O'zbekiston ham 2017-yilga qadar 9 ta atigi davlat vizasiz mamlakatga kirish imkoniyatiga ega edi va tashrif buyuruvchilar soni esa, 2.69 mln ni tashkil etdi. Ammo 2023-yilga kelib vizasiz tashrif buyurishi mumkin bo'lgan davlatlar soni 15 baravarga ya'ni, 140 tani tashkil etgan bo'lsa, tashrif buyuruvchilar soni 2,5 baravar ya'ni, 6.6 mln ga yetdi. Aksincha, O'zbekiston fuqarolari uchun chet mamlakatga vizasiz chiqish va harakatlanish asosan Osiyo, Afrika va Ayrim Yevropa mamlakatlarini tashkil etgan.

O'zbekiston fuqarolari uchun xorijga chiqishda Rossiya, Ukraina, Belarus, Nue va Kuk orollariga viza talab etilmaydi. Qozog'iston, Tojikiston, Turkiya, Indoneziya, Malayziya, Filippin, Mikroneziya, Sent-Vinsent va Grenadin orollariga 30 kungacha viza so'ralmaydi. Ozarbayjon, Moldova, Gaiti, Namibiya, Ekvador mamlakatlarida 90 kungacha, Armaniston, Antigua va Barbuda, davlatlarida esa 180 kungacha visasiz yurish mumkin. Shuningdek, 33 ta davlatda soddalashtirilgan viza tartiblari o'rnatilgan. O'zbekiston fuqarolari ushbu davlatlarga (Indoneziya, Malayziya) oldindan viza olmasdan borishlari mumkin. Biroq vizalar belgilangan mamlakatga kelganda yoki oldindan uydan chiqmasdan onlayn tarzda olishingiz mumkin [10]. Visa talab etiladigan mamlakatlarda (asosan Yevropa va AQSH davlatlari) to'g'ridan-to'g'ri elchixonasiga borib viza olish uchun murojaat qilishni talab etadi. Bundan tashqari Armeniya, Ozarbayjan, Belarusiya, Gruziya, Qozog'iston, Maldoviya, Rossiya va Ukraina davlatlari fuqarolari O'zbekistonga 90, Qirg'iziston 60, barcha Yevropa davlatlari 30, kungacha vizasiz tashrif buyurishlari mumkin [11].

Bizga ma'lumki, tashqi turistlar oqimiga va turistlarga ko'rsatiladigan xizmatlar hajmiga ta'sir ko'rsatuvchi asosiy omillardan biri har bir davlatlarning yuritayotgan viza siyosati hisoblanadi. Bu siyosatni yuritish orqali tashqi turistlar oqimini boshqarish hamda ularni bu davlatga qancha muddat turishini nazorat qilish mumkin bo'ladi. Tashqi turistlar borgan davlatiga valyuta olib borishi bilan u davlatning iqtisodiyoti rivojlanishiga o'z hissasini qo'shadi. Shu sababli, tashqi turistlarning sayohat maqsadida borgan davlatiga qancha muddat bo'lishi va bu muddat oralig'ida ularga ko'rsatilgan xizmatlar orqali valyuta olib kirishiga viza siyosati ta'sir qiladigan bo'lsa, u holda tashqi turistlarni qabul qiluvchi davlatlarning viza siyosati bo'yicha ochiqligini o'rganish muhim ahamiyat kasb etar ekan. Tashqi turistlarni qabul qiluvchi har bir davlatning viza siyosatiga miqdoriy baho berish uchun quyidagi metodni taklif qilamiz:

- 1) Dastlab davlatlarning viza siyosati bo'yicha ko'rsatkichlar yig'iladi.
- 2) Etalon sifatida ko'rsatkichlar yig'ilib, ular $\bar{P}(a_1, a_2, a_3, \dots, a_n)$ vektor ko'rinishiga keltiriladi.
- 3) Har bir davlatning viza siyosati bo'yicha ko'rsatkichlari ham $\bar{Q}(b_1, b_2, b_3, \dots, b_n)$ vektor ko'rinishiga keltiriladi.
- 4) Uchinchi bosqichdagi vektorli ko'rsatkichlar ikkinchi bosqichdagi vektorli ko'rsatkichlar kabi bo'lishi yoki bunga yaqin bo'lishi uchun bu vektorlar parallel yoki ular orasidagi burchak eng kichik bo'lishi kerak bo'ladi. Hamda uning formula ko'rinishidagi ifodasi quyidagicha:

$$\beta_i = \frac{\sum_{k=1}^n (a_i \cdot b_i)}{\sqrt{\sum_{k=1}^n a_i^2} \sqrt{\sum_{k=1}^n b_i^2}} \quad (\beta_i - \text{davlatning viza siyosatini miqdoriy ko'rsatkichi})$$

Bu ko'rsatkichning maksimal qiymati 1 ga, minimal qiymati 0 ga teng bo'ladi. Agar biror davlat boshqa davlatlar fuqarolariga viza bermasa, u holda uning natijasi nolga teng bo'ladi. Hamda β_i – davlatning viza siyosatini miqdoriy ko'rsatkichi qancha yuqori bo'lsa, uning viza siyosati bo'yicha ochiqlik darajasi yuqori bo'ladi.

Yuqoridagi jadval ma'lumoti yordamida Singapur davlatining viza siyosatiga miqdoriy baho beramiz. Uning vektorli ko'rsatkichlari $\bar{Q}(14,0,0,0,0,0,127,0,0,0,35,0,0,0)$ ko'rinishda bo'ladi. Etalon sifatida yig'ilgan vektorli ko'rsatkichlar $\bar{P}(14,7,0,3,3,1,3,127,13,0,62,74,4,0,31)$

ko‘rinishda bo‘ladi. Taklif qilinayotgan metodikaning to‘rtinchi bosqichidagi formula orqali Singapur davlatining viza siyosatiga miqdoriy bahoni aniqlaymiz.

$$\beta_s = \frac{14 \cdot 14 + 7 \cdot 0 + 0 \cdot 0 + 3 \cdot 0 + 3 \cdot 0 + 1 \cdot 0 + 3 \cdot 0 + 127 \cdot 127 + 13 \cdot 0 + 0 \cdot 0 + 62 \cdot 0 + 74 \cdot 35 + 4 \cdot 0 + 0 \cdot 0 + 31 \cdot 0}{\sqrt{14^2 + 127^2 + 35^2} \sqrt{14^2 + 7^2 + 0^2 + 3^2 + 3^2 + 1^2 + 3^2 + 127^2 + 13^2 + 0^2 + 62^2 + 74^2 + 4^2 + 0^2 + 31^2}} = 0,87$$

Bu natijadan ko‘rishimiz mumkinki, Singapur davlatining turistlar uchun yuritayotgan viza siyosati 1ga yaqin natija ekan.

Yuqoridagi jadval ma’lumotlari asosida O‘zbekistonning viza siyosatiga miqdoriy baho beramiz. O‘zbekistonning vektorli ko‘rsatkichlari $\bar{Q}(0,7,0,0,0,0,50,0,0,1,8,0,0,0)$ ko‘rinishda bo‘ladi. Bu ma’lumotlar asosida O‘zbekistonning viza siyosatiga miqdoriy bahoni quyidagicha aniqlaymiz.

$$\beta_s = \frac{14 \cdot 0 + 7 \cdot 7 + 0 \cdot 0 + 3 \cdot 0 + 3 \cdot 0 + 1 \cdot 0 + 3 \cdot 0 + 127 \cdot 50 + 13 \cdot 0 + 0 \cdot 0 + 62 \cdot 1 + 74 \cdot 8 + 4 \cdot 0 + 0 \cdot 0 + 31 \cdot 0}{\sqrt{7^2 + 50^2 + 1^2 + 8^2} \sqrt{14^2 + 7^2 + 0^2 + 3^2 + 3^2 + 1^2 + 3^2 + 127^2 + 13^2 + 0^2 + 62^2 + 74^2 + 4^2 + 0^2 + 31^2}} = 0,84$$

O‘zbekistonning ham turistlar uchun yuritayotgan viza siyosati 1ga yaqin natija ekan. Bundan ko‘rishimiz mumkinki, O‘zbekistonning viza siyosati bo‘yicha ochiqlik darajasi yuqori hisoblanadi.

Jadvalda keltirilgan barcha o‘n ikkita davlatlarning viza siyosati bo‘yicha ochiqlik darajasi taklif qilinadigan metodika orqali o‘rganildi. Taklif qilingan metodika orqali ularning aniqlangan natijasi quyidagi 2 – jadvalda keltirilgan.

2 – Jadval

Davlatlarning viza siyosati bo‘yicha ochiqlik darajasi

	Singapur	Yaponiya	Xitoy	Qatar	Malayziya	Eron	Birlashgan Arab Amirliklari	Qirg‘iziston	Norvegiya	Irlandiya	Amerika Qo‘shma Shtatlari	O‘zbekiston
Viza siyosati bo‘yicha ochiqlik darajasi	0,87	0,46	0,87	0,88	0,89	0,76	0,73	0,45	0,49	0,49	0,48	0,84

Bu jadval ma’lumotlaridan ko‘rishimiz mumkinki, turistlar bo‘yicha viza siyosatining ochiqlik darajasi Malayziya davlati uchun eng yuqori hisoblanadi. Uning viza siyosati bo‘yicha ochiqlik darajasi 0,89 ga teng. Eng past ko‘rsatkich Qirg‘iziston davlatiga tegishli bo‘lib, uning viza siyosati bo‘yicha ochiqlik darajasi 0,45 ga teng ekan.

Xulosa va takliflar. Yuqorida olib borilgan tadqiqotlar va tahlil natijalaridan shuni xulosa qilish mumkinki, oldingi yillarda mamlakatimizga vizasiz tashrif buyurish imkoniga atigi 9 ta davlat ega bo‘lgan, ammo joriy yilga kelib ular soni 139 taga yetgani, ayniqsa qo‘nshni Qozog‘iston, Qirg‘iziston va Tojikiston davlatlari fuqarolari yaqin qarindoshlarini ziyorat qilish sababli sayohatlarni amalga oshirishmoqda. Bundan tashqari nafaqat Yevropa davlatlaridan balkim, Malayziya hamda Indoneziya fuqarolari ham oxirgi 3 yil ichida tashriflar soni oshib bormoqda. Taklif sifatida oxirgi yillar o‘rta osiyo bo‘ylab turlar turistik agentliklar tomonidan muntazam sotilmoqda va bundan kelib chiqib ushbu beshta mamlakatga to‘siqsiz tashrif buyurishini inobatga olgan holda kelajakda o‘rta osiyo hududlari bo‘ylab yagona viza rejimi joriy etilishini taqozo etmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. World Travels & Tourism Council (WTTC), Economic Impact Research, <https://wttc.org/research/economic-impact>.
2. Jaume Rossello va Maria Santana-Gallego, “The effect of visa types on international tourism”, Economic Modelling, Volume 137, August 2024, 106757.
3. Moufida Nadi [3] “The Impact Of Visa Facilities On Tourism Sector Case Study For Algeria”, researchgate, June 2017.
4. Luz Anjelika Kantillo Ortiz [4] “Impact of visa restrictions on international tourism arrivals” University of the Balearic Islands, 2021.
5. Andrés Artal-Tur, Vicente J. Pallardo-Lopez [5], Francisco Requena-Silvente [6] “Examining the impact of visa restrictions on international tourist flows using panel data” Examining the impact... / Estudios de Economía. Vol. 43 - Nº 2, Diciembre 2016. Págs. 265-279 A. Artal-Tur, V. J. Pallardó-López, F. Requena.
6. Трунина И. Н., Туризм и визовые формальности: организационные аспекты, Современные проблемы сервиса и туризма, № 4/2011.
7. Леонид Гайдукевич, Визовая политика Республики Беларусь как регулятор развития международного туризма, Journal of International Law and International Relations. 2019. N 3-4 (90-91). P. 54—59.
8. N.S. Ibragimov [8] “Turistik hudud barqaror raqobatbardoshligiga erishishning ilmiy asoslari, Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot, 2024-yil, avgust. № 8-son.
9. Global Passport Power Rank 2024, Passports of the world ranked by their total mobility score. <https://www.passportindex.org>.
10. <https://uzbektourism.uz/>
11. <https://uzbektourism.uz/>

К.Юлдашев Эффект визовой политики в привлечении независимых туристов в Узбекистан на основе международного опыта	К.Yuldashev Effect of visa policy in attracting independent tourists to Uzbekistan based on international experience
Аннотация: в данной статье на основе международного опыта доказано прямое влияние визовой политики на привлечение независимых туристов в Узбекистан с помощью статистических данных, а также методом количественной оценки определен индекс открытости страны в глазах туристов. Ключевые слова: виза, независимый турист, безвизовый режим, глобальный паспортный индекс, индекс открытости, количественная оценка, типы виз.	Abstract: In this article, based on international experience, the direct influence of visa policy on attracting independent tourists to Uzbekistan is proven using statistical data, and the index of openness of the country in the eyes of tourists is determined using a quantitative assessment method. Keywords: visa, independent tourist, visa-free regime, global passport index, openness index, quantitative assessment, visa types.

Азиза Пирмаматовна Махмудова – СамИСИ, «Туризм» кафедраси доценти, и.ф.ф.д.

ТУРИЗМ СОҲАСИНИ ИННОВАЦИОН РИВОЖЛАНТИРИШ ЙЎЛЛАРИ

Аннотация. Ушбу мақолада туризм соҳасини инновацион ривожлантириш йўллари ҳамда унинг ривожланишига таъсир этаётган омиллар таҳлили келтирилган. Калит сўзлар: инновация, туристик ташкилотлар, номоддий активлар, маҳаллий ва хорижий инвестициялар, жозибador туристик маҳсулотлар.

Кириш. Иқтисодиёт соҳаларини ривожланишнинг бугунги кундаги энг муҳим хусусиятларидан бири – давлат иқтисодий ўсишининг асоси сифатида инновацияларнинг ролининг ортиб бориши, шунингдек, ривожланган мамлакатларнинг юқори технологиялар

ISSN 2091-5187

❧ “СЕРВИС” ❧

Журнал Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институти таҳририят
бўлимида нашрга тайёрланди.

20.11.2024 йилда теришга берилди. 05.12.2024 йилда босишга рухсат этилди.
Офсет босма қоғози. Қоғоз бичими 60x84_{1/8}. “Times” гарнитураси. Офсет
босма усули. Шартли босма табағи 15,76. Ҳисоб-нашриёт
табағи 13,75. Адади 100 нусха. Буюртма № 0134А/24

Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институтининг
матбаа бўлимида чоп этилди.
Лицензия № 025316.
Реестр № Х-119112.

Манзил: Самарқанд шаҳри, Шохрух кўчаси, 60-уй.

© Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институти, 2024.